
**VOLUME 10, OCTOBER 2026**
ISSN: 3060-4958







# The Lingua Spectrum




UZBEKISTAN STATE WORLD
LANGUAGES UNIVERSITY

**MORE INFO:**

www.lingvospektr.uz

t.me/thelinguaspectrum

| | | |
|---|---|---|
| **Jalolova G.M.** | Structural-semantic classification and etymological layers of astrological vocabulary in English and Uzbek | 146 |
| **Abduxakimova G.** | A Lexico-Semantic Comparative Analysis of Euphemisms Related to the Body, Health and Private Life in Contemporary English and Uzbek Media Discourse (Social Media, Online News and Blogs) | 153 |
| **Dalieva M.Kh.** | Lexical and pragmatic features of English-language media headlines: a corpus study of world health organization news releases | 161 |
| **Baynazarov Z.M.** | Language policy in the Timurid period and the status of the Turkic language | 169 |
| **Im S.B.** | Gallicisms and the Ways They Entered the Russian Language | 181 |
| **Im S.B.** | Karamzin as the Creator of the French Culture of Sensibility in the Russian Language | 189 |
| **Siddikova F.O.** | The representation of hospitality in English and Uzbek: A Comparative Linguocultural Analysis | 195 |
| **Sadinova M.A.** | Binary conceptual oppositions in the linguistic worldview: The life – death model | 204 |
| **Umarova J.Zh.** | Evaluative Language and Metaphor in Museum Discourse: Assessing AI-Based Analysis of the Savitsky Museum Catalogue | 228 |
| **Xojanov Sh.B.** | The study of phraseological units based on modern linguistic theories in K. Karimov's novel "Agabiy" | 239 |
| **Azimova D.A.** | The System of Non-Canonical Antonym Pairs in English Presidential Speeches and Proverbs (Non-Canonical Antonyms as Powerful Rhetorical Instruments) | 246 |
| **Nasirova R.A.** | Phraseological and Paremiological Conceptualization of Moral Values in English and Uzbek | 254 |
| **Kambarova M.A.** | Universal and National-Specific Features in English and Russian Proverbs (based on Proverbs about Homeland) | 260 |
| **Djalilov M.M.** | Neologisms and abbreviations: the interaction of word-formation processes in modern linguistics | 267 |
| **Sabirova B.U.** | The lexical-semantic analysis of Uzbek pragmalinguistic terms "lingvistik kontekst, vaziyat konteksti, ijtimoiy konteks va kognitiv kontekst" | 273 |
| **Karimova Z.G'.** | Illocutionary features of modal and interjection word-sentences in typologically different languages | 282 |
| **Borisova Ye.V.** | Linguistic representation of blame and responsibility in public corporate apologies | 289 |
| **Yahyaeva E.V.** | Vocative words and vocative sentences in Azerbaijani | 301 |
| **Musayeva S.** | Structural and semantic features of phraseological units in the form of word combinations and sentences in Azerbaijani | 310 |

# The study of phraseological units based on modern linguistic theories in K. Karimov's novel "Agabiy"

**Xojanov Sharapatdin Baltaniyazovich**[7]
x_sharapatdiyn@karsu.uz
*Professor, Department of Applied Philology, Berdakh Karakalpak State University*

**Annotation** *This article examines phraseological units in K. Karimov's novel "Agabiy" through contemporary linguistic approaches, including cognitive linguistics, psycholinguistics, linguocultural studies, and pragmatics. It analyzes their emotional and semantic properties, imagery, context-dependent meanings, and communicative and aesthetic functions in literary discourse. Particular attention is paid to phraseological units containing the somatic components kewil, júrek, júz, bas, awız, barmaq, bawır, and qan, which help represent characters' psychological states. Examples from the novel are used to discuss expressions of joy, anxiety, fear, sorrow, regret, and inner distress. The analysis shows that these units do more than name emotions: they also convey intensity, evaluative colouring, and vivid imagery. The article further considers how phraseology preserves and communicates elements of Karakalpak everyday life, hospitality, and national-cultural experience. The findings demonstrate the value of an anthropocentric approach to the study of phraseological units in literary texts. At the same time, this provides an important scientific foundation for identifying the linguocognitive and pragmatic features of phraseological units in literary discourse, revealing their connection with national thought, and gaining a deeper understanding of the figurative and expressive potential of the Karakalpak literary language.*

**Keywords** *Phraseological unit, "Agabiy", cognitive linguistics, psycholinguistics, linguocultural studies, emotional semantics, somatic component, pragmatics*

# K. Karimovning "Og'abiy" romanida zamonaviy lingvistik nazariyalar asosida frazeologik birliklarning o'rganilishi

**Xojanov Sharapatdin Baltaniyazovich**
x_sharapatdiyn@karsu.uz
*Amaliy filologiya kafedrasi professori, Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti*

**Annotatsiya** *Maqolada K. Karimovning "Og'abiy" romanida qo'llangan frazeologik birliklar zamonaviy lingvistik nazariyalar, jumladan, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, lingvomadaniyatshunoslik va pragmalingvistika nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqotda frazeologizmlarning emotsional-semantik xususiyatlari, obrazlilik darajasi, kontekstual ma'nosi hamda badiiy matndagi kommunikativ-estetik vazifalari yoritiladi. Ayniqsa, kewil, júrek, júz, bas, awız, barmaq, bawır va qan kabi somatik komponentlar ishtirokidagi birliklarning qahramonlar ruhiy holatini ifodalashdagi imkoniyatlariga e'tibor qaratiladi. Misollar asosida quvonch, xavotir, qo'rquv, qayg'u, afsus va ichki bezovtalikni ifodalovchi frazeologizmlarning semantik farqlari ko'rsatiladi. Tahlil frazeologik birliklar faqat muayyan holatni nomlash bilan cheklanmasdan, uning intensivligini, emotsional rangini va obrazli ifodasini ham*

[7] Xojanov Sh.B. — ORCID: 0000-0003-0408-3619

*yuzaga chiqarishini ko‘rsatadi. Shuningdek, romandagi frazeologizmlarda qoraqalpoq xalqining turmush tarzi, mehmondo‘stlik an’analari va milliy-madaniy tajribasi aks etishi izohlanadi. Natijalar badiiy matn frazeologiyasini antropotsentrik yondashuv asosida o‘rganish uchun ahamiyatlidir. Shu bilan birga, frazeologik birliklarning badiiy diskursdagi lingvokognitiv va pragmatik xususiyatlarini aniqlash, ularning milliy tafakkur bilan bog‘liqligini ochib berish hamda qoraqalpoq adabiy tilining obrazli ifoda imkoniyatlarini chuqurroq yoritishga muhim ilmiy asos yaratadi.*

**Kalit so‘zlar** *Frazeologik birlik, “Og‘abiy” romani, kognitiv lingvistika, psixolingvistika, lingvomadaniyat, emotsional semantika, somatik komponent, pragmatika*

## Исследование фразеологических единиц в романе К. Каримова «Агабий» на основе современных лингвистических теорий

**Ходжанов Шарапатдин Балтаниязович**
*x_sharapatdiyn@karsu.uz*
*Профессор кафедры прикладной филологии, Каракалпакский государственный университет имени Бердаха*

**Аннотация** *В статье фразеологические единицы романа К. Каримова «Агабий» рассматриваются с позиций современных лингвистических подходов: когнитивной лингвистики, психолингвистики, лингвокультурологии и прагматики. Анализируются эмоционально-семантические характеристики фразеологизмов, их образность, контекстуальные значения и коммуникативно-эстетические функции в художественном тексте. Особое внимание уделяется единицам с соматическими компонентами kewil, júrek, júz, bas, awız, barmaq, bawır и qan, посредством которых передаются психологические состояния персонажей. На материале романа рассматриваются фразеологизмы, выражающие радость, тревогу, страх, печаль, сожаление и внутреннее беспокойство. Показано, что такие единицы не только называют эмоциональное состояние, но и передают его интенсивность, оценочную окраску и образное содержание. Кроме того, раскрывается роль фразеологизмов в отражении бытовых представлений, гостеприимства и национально-культурного опыта каракалпакского народа. Результаты исследования демонстрируют возможности антропоцентрического подхода к анализу фразеологии художественного текста. Вместе с тем это создаёт важную научную основу для выявления лингвокогнитивных и прагматических особенностей фразеологических единиц в художественном дискурсе, раскрытия их взаимосвязи с национальным мышлением, а также более глубокого изучения образно-выразительных возможностей каракалпакского литературного языка.*

**Ключевые слова** *Разеологическая единица, роман «Агабий», когнитивная лингвистика, психолингвистика, лингвокультурология, эмоциональная семантика, соматический компонент, прагматика*

**Kirish**

Frazeologik birliklar tilning milliy-madaniy o‘ziga xosligini, xalqning dunyoni qabul qilishini, fikrlash tarzini va emotsional tajribasini aks ettiruvchi muhim masala til birliklarining biri hisoblanadi. Zamonaviy tilshunoslikda frazeologizmlarni tadqiq etish nafaqat ularning struktur va semantik xususiyatlarini aniqlash bilan cheklanmaydi, balki ularni kognitiv, psixolingvistik, lingvomadaniy va pragmatik aspektlarda ko‘rib chiqishni ham talab etadi. Ayniqsa badiiy matndagi frazeologizmlar qahramonning emotsional-psixologik holatini, muallif maqsadini va milliy dunyo manzarasini ochib berishda alohida xizmat bajaradi.

Shu nuqtai nazardan K. Karimovning “Og‘abiy” romani tilidagi frazeologik birliklarni zamonaviy lingvistik nazariyalar asosida tadqiq etish dolzarb masala hisoblanadi. Maqolada romandagi frazeologizmlarning emotsional semantikasi, somatik komponentlari, kognitiv va psixolingvistik xususiyatlari, shuningdek, ularning lingvomadaniy va pragmatik vazifalari tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – “Og‘abiy” romani materiallari orqali frazeologik birliklarning insonning ichki dunyosini, emotsional holatini va milliy-madaniy tajribasini tilda aks ettirish xususiyatlarini aniqlash. Bu maqsadga erishish uchun frazeologizmlarni semantik to‘plash, kontekstual tahlil va kognitiv-lingvomadaniy yondashuv usullari qo‘llanildi.

K. Karimovning “Og‘abiy” romani tilining badiiyligi, leksik va frazeologik boyligi, milliy koloriti va tarixiy davrni aks ettirish xususiyatlari bilan qoraqalpoq nasrida alohida o‘rin egallaydi. Badiiy asar tili nafaqat fikr almashish vositasi, balki insonning ichki dunyosini, emotsional-psixologik holatini, atrof-muhitni qabul qilish xususiyatini, milliy tafakkur tizimini va madaniy tajribasini aks ettiruvchi murakkab lisoniy hodisadir. Har bir xalq tilida o‘sha xalqning tarixi, turmush tarzi, an’analari, dunyoqarashi va ma’naviy qadriyatlari muayyan darajada o‘z ifodasini topadi. Ushbu milliy-madaniy mazmunni, obrazlilikni va emotsional-ekspressiv ta’sirchanlikni o‘zida mujassam etgan til birliklarining muhim qatlami frazeologizmlardan iborat.

Frazeologik birliklar til tizimida struktural barqarorligi, komponentlarining o‘zaro bog‘liqligi, semantik yaxlitligi, obrazliligi va emotsional-ekspressiv bo‘yog‘i bilan ajralib turadi. Qoraqalpoq frazeologiyasining leksik-semantik tarkibi va barqaror birikmalar tizimi mahalliy frazeografik tadqiqotlarda ham yoritilgan (Berdiymuratov, 1995; Eshbaev, 1985; Paxratdinov & Bekniyazov, 2012, 2018). Ular erkin so‘z birikmasidan farqli ravishda tilda tayyor holda qo‘llaniladi va ko‘p hollarda komponentlarining bevosita leksik ma’nolaridan kelib chiqmaydigan yaxlit ma’noni anglatadi. Shuning bilan birga frazeologizmlarning ma’nosi faqat leksik mazmun bilan chegaralanmay, kontekstda qo‘shimcha emotsional, pragmatik va stilistik bo‘yoqlar bilan to‘ldiriladi. Shu sababli zamonaviy tilshunoslikda frazeologik birliklarni faqat struktur-semantik birlik sifatida emas, balki insonning tafakkuri, emotsional tajribasi, madaniyati va kommunikativ faoliyati bilan bog‘liq holda o‘rganishga alohida e’tibor berilmoqda.

**Nazariy asoslar**

Kognitiv tilshunoslik nuqtai nazaridan frazeologizmlar insonning dunyoni idrok etishi va tushunish va obrazli tarzda ifodalash usullarini aks ettiruvchi til birliklaridir. Inson abstrakt tushunchalarni ko‘p hollarda konkret obrazlar, odamning tana a’zolari bilan bog‘liq tajribasi va kundalik turmush sharoitlari orqali qabul qiladi. Masalan, quvonch, qayg‘u, qo‘rquv, g‘azab, afsus kabi mavhum psixologik holatlarning yurak, ko‘ngil, yuz, bosh, qon, og‘iz, barmoq kabi tana a’zolari nomlari bilan bog‘lanishi insonning ichki olamini konkret fizik obrazlar orqali konseptuallashtirish mexanizmini ko‘rsatadi. Demak, somatik komponentli frazeologizmlar til bilan tafakkur

o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash uchun qimmatli manba bo‘lib hisoblanadi.

Psixolingvistik nuqtai nazardan frazeologik birliklar insonning psixik va emotsional holatlarini til orqali obyektivlashtiruvchi vosita sifatida qaraladi. A.E. Mamatov insonning quvonchi, g‘azabi, qo‘rquvi, afsuslanishi, azoblanishi, uyalishi, nafratlanishi va boshqa ruhiy holatlari tilda turli frazeologik birliklar orqali aks etishini ta’kidlaydi (Mamatov, 1999; 68). Bu fikr badiiy matn materiallari bilan ham isbotlanadi. Chunki yozuvchi qahramonning emotsional holatini to‘g‘ridan-to‘g‘ri atash bilan birga, uni frazeologik obraz orqali ham ko‘rsata oladi. Natijada qahramonning psixologik holati o‘quvchiga faqat axborot tarzida emas, balki emotsional-obrazli shaklda yetkaziladi.

Qozoq tilshunosligida X. Qojaxmetova frazeologizmlarning badiiy adabiyotdagi estetik xizmatiga alohida e‘tibor berib, ularning yozuvchiga qahramonning psixologik holatini, o‘yini va ruhiy dunyosini nozik tarzda tasvirlash imkoniyatini berishini ko‘rsatadi (Qojaxmetova, 1972; 58). Bu qarash badiiy matnda frazeologizmlarning qo‘llanilishi tasodifiy emasligini ko‘rsatadi. Muallif ma’lum bir emotsional vaziyatga mos frazeologik birlikni tanlab, uning semantik va ekspressiv salohiyatidan foydalanadi. Qoraqalpoq tilshunosligida J.O‘. Tańirbergenov fe‘lli frazeologizmlarning modellarini, semantik guruhlarini va kontekstual bo‘yoqlarini o‘rganib, ularning til tizimidagi xususiyatlarini aniqlagan (Tańirbergenov, 2020). Bu tadqiqotlar qoraqalpoq frazeologiyasini zamonaviy lingvistik yo‘nalishlarda o‘rganish uchun nazariy asos bo‘ladi.

**Roman matnidagi frazeologizmlarning tahlili**

K. Karimovning “Og‘abiy” romanida uchraydigan frazeologik birliklarning sezilarli qismi (Karimov, 2012–2018) qahramonlarning emotsional-psixologik holatlarini ochib berishga xizmat etadi. Ularni emotsional semantikasiga ko‘ra ijobiy va salbiy emotsional holatlarni bildiruvchi birliklarga ajratish mumkin. Ijobiy emotsional holatlarni bildiruvchi frazeologizmlar insonning quvonchini, shodligini, roziligini, qanoatlanishini, suyunishini, tinchligini va oq tilagini aks ettiradi. Masalan, romanda yuqori darajadagi quwanısh va shadlıq tóbesi kókke jetiw, ezivi qulaǵına jetiw, ishinen jerden jeti qoyan tapqanday bolıw kabi frazeologizmlar orqali beriladi. “Endi qıpshaq biyiniń ózi qonaq bolıp kelip otırǵanınan tóbesi kókke jetti” degan misolda tóbesi kókke jetiw birligi qahramonning quvonchini bildirib qo‘ya qolmay, o‘sha emotsional holatning intensivlik darajasini ham ko‘rsatadi. Bu frazeologizmning semantik mazmunida “quvonish” degan asosiy ma’nosi bilan birga quvonchning kuchli darajasini bildiruvchi emotsional-ekspressiv komponent bor.

“Mennen bir ziyapat, moynıma alaman, dedi quwańǵanınan eziwi qulaǵına jetken Erejep” – degan misolda eziwi qulaǵına jetiw frazeologizmi quvonch tuyg‘usining tashqi fiziologik belgilari orqali tasvirlangan. Odamning quvonchi uning yuzidagi o‘zgarish, labining kengayishi kabi fiziologik harakatlar bilan bog‘lab berilgan. Bu frazeologik birlik psixologik holatni fizik belgilar orqali obyektivlashtirishi bilan psixolingvistik va kognitiv jihatdan qiziq.

“Ishinen jerden jeti qoyan tapqanday quwanıp, murnınıń astınan kúlip qoydı” degan misolda ishinen jerden jeti qoyan tapqanday bolıw birligi qahramonning quvonchini kuchaytirib ko‘rsatadi. Bu yerda frazeologizmning obrazli semantikasi qahramonning emotsional holatini shunchaki atashdan ko‘ra uning intensivligini va ichki sifatini kengroq aks ettiradi. Frazeologizmning tarkibidagi obraz qahramonning quvonchini o‘quvchining ko‘z oldiga keltirishga imkoniyat beradi.

Qahramonning ichki roziligi va psixologik yengilligini ko‘rsatishda kewli dáryaday tasıw, kewli kóteriliw, kewli tolıw, kewlin xoshlaw, janı jay tabıw kabi frazeologizmlar ham qo‘llanilgan. Bu birliklar semantik jihatdan yaqin bo‘lsa-da, bir-birining to‘liq sinonimi emas. Masalan, kewli

dáryaday tasıw emotsional ko‘tarinkilikning yuqori darajasini bildirsa, kewli tolıw qoniqish, rozilik va ichki qanoat tuyg‘ularini anglatadi. Kewli kóteriliw odamning ruhiy holatining yaxshilanishini bildirsa, janı jay tabıw psixologik xotirjamlikka erishish ma’nosini anglatadi. Demak, frazeologik sinonimlar orasida semantik umumiylik bilan birga emotsional rang bo‘yicha ham farqlanishlar bo‘ladi.

Romanda salbiy emotsional holatlarni anglatuvchi frazeologizmlar qahramonlarning ichki dramatizmini, konfliktli holatlarini va psixologik to‘lqinlanishlarini ochishda katta xizmat bajaradi. Xavotir va qo‘rquv ma’nolarini júregi dawamaw, júregi suwlaw, húreyin ushırıw, kewli alaǵada bolıw, ózin qoyarǵa jer tappaw kabi birliklar bildiradi. Júregi dawamaw noma’lum yoki xavfli vaziyat oldidagi qo‘rquvni bildirsa, júregi suwlaw xavfni sezishdan paydo bo‘lgan qo‘rquvning kuchayganligini anglatadi. Húreyin ushırıw boshqa odamda qo‘rquv hissining paydo bo‘lishini bildirib, emotsional holatning bir subyektdan ikkinchi subyektga o‘tish mexanizmini ko‘rsatadi. Ózin qoyarǵa jer tappaw esa qahramonning ichki bezovtaligi va qattiq tashvishlanishini dinamik tarzda tasvirlaydi.

Qayg‘u va ichki og‘irlikni ifodalashda kewli qabarıw, kewli eziliw, qabırǵası qayısıw, júzin tómen qaratıw, jer menen jeksen etiw, ishken ası boyına taramaw kabi frazeologizmlar qo‘llanilgan. Ko‘ngil g‘ashligi o‘tmishni eslashdan yoki noxush vaziyatdan paydo bo‘lgan qayg‘uni bildirsa, kewli eziliw ichki qiynalish va ruhiy og‘irlik ma’nolariga yaqin. Qabırǵası qayısıw bo‘lsa chuqur qayg‘uni, ayniqsa yaqin kishisidan ayrilish yoki og‘ir musibat bilan bog‘liq psixologik holatni kuchaytirib ko‘rsatadi. Shuning uchun bu birliklarni birgina “qayǵırıw” ma’nosiga olib borish ularning semantik xususiyatlarini to‘liq ochmaydi. Har bir frazeologizm emotsional holatning ma’lum bir darajasini, sababini yoki rangini aks ettiradi.

Ichki g‘azab, afsus va qarshilik ma’nolarini berishda. Ishi iyt jırtqanday bolıw, qolın bir siltew, barmaq tislew, salısı suwǵa ketiw, bası tómen salınıw, qara terge batıw, júziniń qanı qashıw kabi birliklar qo‘llanilgan. Masalan, barmaq tislew achinish hissini obrazli tarzda ifodalaydi. qolın bir siltew kontekstga qarab esa qandaydir masaladan bosh tortish, aralashmaslik, befarqlik yoki umidsizlik tusini anglatishi mumkin. Bu yerda frazeologizmning aniq ma’nosi kontekst orqali aniqlanadi. Shu sababli frazeologik semantikani kontekstdan tashqarida qarash har doim ham to‘liq natija bermaydi.

Júziniń qanı qashıw hám qara terge batıw kabi frazeologizmlar psixologik holatning fiziologik reaksiyalar orqali berilishining misolidir. Insonning qo‘rquvi, vahima, qattiq hayajonlanishi yuz-ko‘rinishidagi o‘zgarish yoki terlash kabi tashqi belgilar bilan bog‘liq. Bunday frazeologizmlarda jismoniy harakat bilan psixologik holat o‘rtasida assotsiativ bog‘lanish paydo bo‘ladi. Kognitiv lingvistika nuqtai nazaridan bu holat abstrakt emotsional tushunchaning konkret jismoniy tajriba orqali konseptuallashtirilishi bilan tushuntiriladi.

**Somatik komponentlarning kognitiv va lingvomadaniy xususiyatlari**

Romandagi frazeologizmlarning sezilarli qismida somatik komponentlarning faol qo‘llanilishi alohida e’tiborga loyiq. Kewil, júrek, bas, júz, awız, barmaq, bawır, qan kabi so‘zlar insonning ichki dunyosini jismoniy obrazlar orqali berishda faol til komponentlari hisoblanadi. Qoraqalpoq milliy lisoniy ongida kewil va júrek insonning emotsional olami bilan bog‘liq markaziy konseptlar sifatida namoyon bo‘ladi. Júz, bas, barmaq kabi somatizmlar esa odamning ichki holatining tashqi belgilarini va harakatlarini aks ettirishga xizmat qiladi. Bu holat frazeologizmlarni nafaqat semantik, balki kognitiv va lingvomadaniy birliklar sifatida ham tadqiq etishga imkon beradi.

Frazeologizmlarning semantik strukturasida denotativ komponent bilan bir qatorda konnotativ komponent ham muhim o‘rin tutadi. Masalan, “қуўанды” degan leksik birlik emotsional holatni bevosita ta’kidlab ko‘rsatadi. Al tóbesi kókke jetiw frazeologizmi shu quvonchning intensivligini, emotsional

kuchini va obrazlilik darajasini ko‘rsatadi. Shuning uchun frazeologizm badiiy matnda oddiy leksik almashinuvchi birlik emas, qo‘shimcha emotsional-ekspressiv va estetik axborotni yetkazuvchi til vositasi hisoblanadi.

**Kontekstual va pragmatik xususiyatlar**

Badiiy matndagi frazeologizmning to‘liq ma’nosi uning kontekstual muhiti bilan chambarchas bog‘liq. Frazeologik birlikni o‘rab turgan so‘zlar, qahramonning harakati, nutq vaziyati, dialogning mazmuni va muallif bayoni uning aniq mazmunli semantik va pragmatik bo‘yog‘ini aniqlaydi. Bir frazeologizm turli kontekstlarda emotsional bo‘yoqning turli darajasini yuzaga chiqarishi mumkin. Bu frazeologik semantikaning dinamik xususiyatini ko‘rsatadi.

Shuning bilan birga “Og‘abiy” romanidagi frazeologizmlar milliy-madaniy axborotni saqlash va yetkazish vazifasini ham bajaradi. Bereket tabıw, qonısı qutlı bolıw kabi birliklarda xalqning turmush tarzi, mehmondo‘stlik an’analari, fotiha berish madaniyati, ezgu tilak va pozitiv baholash kabi milliy-madaniy tushunchalar aks etgan. Frazeologizmlarning bunday turlari tilda xalqning ko‘p asrlik tajribasini saqlovchi lingvomadaniy kod vazifasini bajaradi. Ular orqali xalqning turmushida o‘rin olgan madaniy modellarning tilda qanday obyektivlashganini aniqlash mumkin.

Frazeologik birliklarni lingvomadaniy yo‘nalishda tadqiq qilishda ularning faqat ma’nosini aniqlash yetarli emas. Frazeologizmning shakllanishiga sabab bo‘lgan obrazning xalq ongidagi o‘rnini, uning milliy dunyo manzarasidagi ma’nosini va ma’lum bir an’ana yoki turmush sharoiti bilan bog‘liqligini ham hisobga olish zarur. Shu nuqtai nazardan “Og‘abiy” romanidagi frazeologik material qoraqalpoq tilining milliy dunyo manzarasini o‘rganish uchun ham qimmatli manba bo‘lib hisoblanadi. Qoraqalpoq maqol-matallari va frazeologizmlarining boshqa tillardagi variantlarini qiyoslash ham milliy-madaniy mazmunni aniqlashda muhim manba bo‘la oladi (Eshemuratova, 2011).

Frazeologizmlarning pragmatik vazifasi ham badiiy matnda alohida kuzatiladi. Muallif ma’lum bir frazeologik birlikni tanlash orqali qahramonning emotsional holatini ko‘rsatib qolmay, uning vaziyatga munosabatini, boshqa qahramonlarga bo‘lgan munosabatini va o‘quvchida paydo bo‘lishi kerak bo‘lgan emotsional ta’sirni ham ma’lum darajada boshqaradi. Demak, frazeologizmning badiiy matndagi vazifasi semantik ma’no bilan chegaralanmaydi. U mualliflik intensiyasini ro‘yobga chiqaruvchi pragmatik vosita sifatida ham xizmat qiladi.

**Natijalar va Muhokama**

K. Karimovning “Og‘abiy” romanidagi frazeologik birliklarni tahlil qilish natijasida ularning bir necha o‘zaro bog‘liq lisoniy vazifani bajarishi ko‘rinadi. Ular birinchi navbatda emotsional holatlarni nominatsiyalaydi, ikkinchidan, emotsional ma’noning intensivligini ko‘rsatadi, uchinchidan, qahramonning psixologik portretini shakllantiradi, to‘rtinchidan, muallifning baholash munosabatini yuzaga chiqaradi, beshinchidan, milliy-madaniy axborotni saqlaydi va oltinchidan, badiiy matnning estetik ta’sirchanligini kuchaytiradi.

**Xulosa**

Umumlashtirib aytganda, K. Karimovning “Og‘abiy” romani qoraqalpoq tilining frazeologik tizimini zamonaviy lingvistik nazariyalar asosida o‘rganish uchun qimmatli manba bo‘lib hisoblanadi. Romandagi frazeologizmlar insonning emotsional-psixologik faoliyatining tildagi obrazli aks etishi sifatida xizmat etib, quwanısh, shadlıq, razılıq, qanaatlanıw, tınıshlıq kabi ijobiy emotsional holatlar bilan birga qorqıw, húrrey, qayǵı, ókinish, ashıw, azap hám táshwish kabi salbiy holatlarni ham yaqqol aks ettiradi. Ularning aksariyat ko‘pchiligida somatik komponentlarning qo‘llanilishi insonning ichki psixologik holatini tashqi fiziologik belgilar bilan bog‘lab berishga imkoniyat yaratgan.

Tadqiqot natijalari frazeologik birliklarning badiiy matndagi xizmatining faqat nominativ vazifa bilan chegaralanmasligini

ko‘rsatadi. Ular semantik, emotsional-ekspressiv, psixolingvistik, kognitiv, lingvomadaniy, pragmatik va estetik vazifalarni bir-biri bilan bog‘liq holda amalga oshiradi. Ayniqsa somatik frazeologizmlar insonning psixologik olamini jismoniy tajriba orqali konseptuallashtirishning milliy lisoniy modellarini ko‘rsatadi. Emotsional semantikaga ega frazeologizmlar esa qahramonning psixologik holatini shunchaki ta’kidlab qolmay, uning intensivligini, dinamikasini va emotsional rangini ham ochib beradi.

Shuning uchun qoraqalpoq tilining frazeologik birliklarini zamonaviy antropotsentrizm lingvistika talablari asosida o‘rganishda ularning til tizimidagi o‘rni bilan birga insonning kognitiv faoliyati, emotsional tajribasi, milliy-madaniy dunyoqarashi va kommunikativ maqsadi bilan bog‘liqligini ham hisobga olish zarur. “Og‘abiy” romani materiallari qoraqalpoq tilida insonning emotsional dunyosini konseptuallashtirishning o‘ziga xos milliy usullari borligini ko‘rsatadi. Kelajakda qoraqalpoq badiiy nasridagi frazeologizmlarni kognitiv modellar, konseptlar, lingvomadaniy kodlar va pragmatik strategiyalar asosida tizimli o‘rganish qoraqalpoq tilining frazeologik tizimini chuqurroq ochishga va milliy-obrazli tafakkurning tildagi ko‘rinishlarini aniqlashga xizmat qiladi.

**References:**

1. Berdiymuratov, E. (1995). *Qaraqalpaq tiliniń leksikologiyası hám frazeologiyası.* Bilim.
2. Eshbaev, J. (1985). *Qaraqalpaq tiliniń qısqasha frazeologiyalıq sózligi.* Qaraqalpaqstan.
3. Eshemuratova, S. (2011). *Qaraqalpaq naqıl-maqalları hám frazeologizmleriniń ózbekshe-russha-inglishe variantları toplamı.* Extremum Press.
4. Karimov, K. (2012–2018). *Aǵabiy: roman (I–III tomlar).* Qaraqalpaqstan.
5. Mamatov, A. E. (1999). *O‘zbek tili frazeologizmlarining shakllanish masalalari* [Doctoral dissertation]. Toshkent.
6. Paxratdinov, Q., & Bekniyazov, Q. (2012). *Qaraqalpaq tilindegi frazeologizmler.* Bilim.
7. Paxratdinov, Q., & Bekniyazov, Q. (2018). *Qaraqalpaq tiliniń frazeologizmler sózligi.* Qaraqalpaqstan.
8. Qojaxmetova, X. (1972). *Frazeologizmlerdiń kórkem ádebiyatta qollanılıwı.* Almatı.
9. Tańirbergenov, J. Ó. (2020). *Qaraqalpaq tilinde feyil frazeologizmlerdiń lingvistikalıq analizi* [Doctoral dissertation]. Nókis.